AI va avtomatik translyatsiya tizimlarining imkoniyatlari	580
Rajabova Umida Rajab qizi	
Kompyuter grafikasi vositalari yordamida ta'lim jarayonini tashkil etishning pedagogik asoslari	583
Ergasheva Dilafuz Chori qizi	
A Conceptual Teacher Digital Competence Model for Vocational Education	587
Alisher Jumanov, Guloyim Rakhimboyeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligi tushunchasi	591
Sa'dullayeva Nafisa Ilhomjon qizi, Abdullayev A'zimjon Abduvali o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalar iqtidorini rivojlantirish muammosining pedagogik-psixologik talqini	594
Sapayeva Gulnoz Azimbayevna	
Zamonaviy va an'anaviy tarbiya uslublarining maktabgacha yoshdagi bolalarga psixologik ta'siri. O'zbekiston oilalarida qiyosiy tahlil	600
Tursunova Aziza Ixtiyorovna	
Tarbiyachi faoliyatida tarbiyalanuvchi shaxsni rivojlantirishning zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuvlari	603
Yusupova Vasilva Yangibayevna	
Профессиональная этика педагога высшего учебного заведения	606
Журабекова Хабиба Мадаминовна	
Boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va pedagogik texnologiyalar	609
O'rmonov Elmurod Mamasoliyevich	



Umumta'lim maktabi o'quvchilarining kreativ fikrlashini tarbiya darsligi vositasida rivojlantirish	612
<i>Abdisharipova Shaydo Bahtiyor qizi</i>	
The Effectiveness of Visual Teaching Methods in Developing Self-Directed Learning Competence Among Undergraduate Mehnat Muhofazasi va Texnika Xavfsizligi Students	615
<i>Abdullayeva Mukhlisakhon Akhrorjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashda xorij tajribasi	620
<i>Aliyeva Ravshanoy Zaripovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishning tashkiliy shakllari va ta'lim vositalari	624
<i>Daniyarova Sarbinaz Maxsetovna</i>	
Nutq madaniyatini shakllantirishda kommunikativ yondashuvning nazariy asoslari	627
<i>Davlatova Nigora Berdimurot qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlikni tizimli boshqarishning ilmiy-pedagogik asoslari	631
<i>Fotima Uralovna Jumanova, Muxamatova Gulmira Erkinjon qizi</i>	
Yosh mutaxassislarda ijtimoiy muhitga moslashishda emotsional intellektning namoyon bo'lishi	635
<i>G'affarova Nazira Fayzulla qizi</i>	
Ko'p ma'noli so'zlarning badiiy matnda qo'llanilishi	639
<i>G'ulomova Zilola Rafiqjon qizi</i>	
Oilaviy munosabatlarda er-xotin bir-birini o'zaro tushunishining o'ziga xosligi va ahamiyati	642
<i>Ibaydullayeva Umida Rustamjonovna</i>	
Gospital maktablar faoliyatini tashkil etishda Buyuk Britaniya, AQSh, Finlyandiya, Germaniya va Gretsiya tajribalardan foydalanish	646
<i>Isakulova N. J.</i>	
Interactive Approaches to Developing EFL Learners' Listening Skills	650
<i>Isayeva Umida</i>	
Global o'zgarishlar sharoitida yoshlarning ijtimoiy-psixologik muammolari	653
<i>Kudratova Lola Ravshanovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda tezkor hisoblashga o'rgatishning samarali usullari	656
<i>Mamasaidova Muhabbat Abdusalom qizi, Akbaraliyeva Marjona Xurshid qizi</i>	
Integrativ yondashuv asosida bolalarga ingliz tilini o'rgatish	660
<i>Marasulova Dono Nigmatullayevna</i>	
Sun'iy intellekt asosidagi chatbotlardan foydalanib 10-sinfda fizika masalalarini o'rgatish metodikasi	665
<i>Matenova Go'zzal Djumabayevna</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilariga ona tilini o'qitish metodlarini takomillashtirish	671
<i>Muminova Munajat Yuldashevna</i>	
Bolalarning etnopsixologik xususiyatlarini rivojlantirishning psixologik shart-sharoitlari	675
<i>Norbekova Barno Shavkatovna</i>	
Qashqadaryo viloyati maktablarida yangi baholash tizimini joriy etishning ta'lim sifati ko'rsatkichlariga ta'siri	679
<i>Panjiyev Maqsud Aliqulovich</i>	
O'zbek tilida gapirish ko'nikmasini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarini tanlash mezonlari	683
<i>Polvonova Shahnoza Faxriddinovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda yil fasllariga oid materiallarni innovatsion-integratsion yondashuvlar asosida o'rgatish metodikasini samaradorligini oshirish	686
<i>Rajabova Muxayyo Komilovna</i>	
Pedagogik jarayonda bilimlar integratsiyasi orqali tahlil qobiliyatini shakllantirish yo'llari	691
<i>Rustamova Latofat Istam qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini o'qitishda innovatsion yondashuvlar	694
<i>Rustamova Manzura Mirkamolovna, Zamira Talipova</i>	
Zamonaviy raqamli jamiyatda oilaviy qadriyatlar transformatsiyasi va uning yoshlar ongiga ta'siri	697
<i>Rasulova Dildora Shuhratovna</i>	

Insondagi hayotiy tanlov bilish psixologiyasining sohasi sifatida.....	703
S. S. Shukurullojeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish	708
Sharofova Feruza Qavmiddinbek qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda interaktiv metodlardan foydalanish.....	713
Xilola Ochilova Sheraliyevna	
Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda munosabatlar tizimini rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillari.....	716
Xujaniyozova Oygul Rajabovna, Ibodullayeva Sharifaxon Oybek qizi	
Kurashchi qizlarning texnik harakatlarining kinematik va kinetik modellashtirish	721
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi	
O'smirlik davridagi inqiroz va uning muammolarining psixologik rivojlanish mexanizmlari	725
Xujaniyozova Oygul Rajabovna, Maksudbekova Shaxzoda Sherzod qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijodiy faoliyat asosida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning o'ziga xosligi	730
Yuldasheva Shoxida Botirovna, Menlimuratova Gulsanem	
Взаимосвязь защитных механизмов и психологической устойчивости подростков в условиях цифровой среды	734
Алимова Елена Геннадьевна	
Narrativ materiallar vositasida oilada o'smir yoshdagi bolalarda kitobxonlikni shakllantirish texnologiyalari.....	740
Yunusova Shahnoza Axror qizi	
Интеграция мультипликации в образовательную среду доо как средство всестороннего развития личности ребенка	745
Терехова Ольга Евгеньевна, Аллазарова Мадина Давронбековна	
Совершенствование речевой культуры студентов	749
Пардабоева Дильфуза Рустамовна	
Использование потенциала искусства в формировании эмоционального интеллекта и социальной компетентности дошкольников	752
Терехова Ольга Евгеньевна, Сайфидинова Мунира Бурхонидиновна	
Теоретические основы проектирования инновационных моделей формирования коммуникативной готовности к школе	756
Терехова Ольга Евгеньевна, Абдурауфова Хилолахон Шахобитдин кизи	
Теоретико-методологические основы формирования логического мышления старших дошкольников посредством интеграции традиционных и интерактивных игр	760
Терехова Ольга Евгеньевна, Рахимова Гулноз Эркиновна	
От репродукции к авторству: поэтапная система развития языковой креативности в старшем дошкольном возрасте	764
Терехова Ольга Евгеньевна, Каримова Регина Равильевна	
Опытно-экспериментальное исследование формирования нравственно-волевых качеств дошкольников в условиях доо средствами национальных игр	768
Терехова Ольга Евгеньевна, Хакимова Одина Шермухамматовна	



BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARIGA ONA TILINI O'QITISH METODLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Muminova Munajat Yuldashevna

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

<https://orcid.org/0009-0001-1376-788X>

Annotatsiya: Ma'lumki, dars o'qitishning asosiy shakli hisoblanadi. Dars esa metodlar orqali amalga oshiriladi. Metod deganda ko'zlangan maqsadga erishish uchun qo'llaniladigan yo'l tushuniladi. Maqolada bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilariga ona tilini o'qitish metodlarini takomillashtirish masalalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: yo'nalish, faoliyat, motiv, g'oya, dars, muammo, imkoniyat, metod, namoyish.

Abstract: It is well known that the lesson is the primary form of instruction, and it is conducted through various methods. A method is a means used to achieve a stated goal. This article examines the improvement of native language teaching methods for future teachers of preschool education institutions.

Key words: direction, activity, motive, idea, lesson, problem, opportunity, method, demonstration.

Аннотация: Известно, что урок является основной формой обучения. Урок проводится с помощью различных методов. Метод – это способ, используемый для достижения намеченной цели. В статье освещаются вопросы совершенствования методов обучения родному языку для будущих педагогов организаций дошкольного образования.

Ключевые слова: направление, деятельность, мотив, идея, урок, проблема, возможность, метод, демонстрация.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini yuqori darajada shakllantirishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi tarbiyachilarning ona tilini o'qitish metodlarini puxta egallashi hamda ularni zamon talablari asosida muntazam takomillashtirib borishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ona tili bolaning tafakkuri, nutqi, dunyoqarashi va shaxs sifatida shakllanishida yetakchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Maktabgacha yosh davri bolaning nutqiy rivojlanishida eng muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning lug'at boyligi shakllanadi, grammatik tuzilmalardan foydalanish ko'nikmalari rivojlanadi hamda muloqot madaniyatining dastlabki asoslari yaratiladi. Shu sababli bo'lajak tarbiyachilarni ona tilini o'qitishning samarali, ilmiy asoslangan va innovatsion metodlari bilan qurollantirish ta'lim sifati hamda tarbiyaviy jarayon samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Hozirgi globallashuv va axborotlashuv sharoitida an'anaviy o'qitish usullari bilan cheklanib qolish yetarli emas. Ta'lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar, o'yin texnologiyalari, integrativ va kommunikativ yondashuvlarni joriy etish zarurati tobora kuchayib bormoqda. Bu esa bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarini tayyorlash jarayonida ona tilini o'qitish metodlarini qayta ko'rib chiqish, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan boyitish va amaliyotga yo'naltirilgan holda takomillashtirishni talab etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilib, maktabgacha yoshdagi bolalar va ularning tarbiyasi masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarilgan. Jumladan, respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimining metodik ta'minotini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila institutining hamkorligini kengaytirish, shuningdek, sinergetik yondashuvlar asosida subyektlar faoliyatini



integratsiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunida bolalarni Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, o'z xalqining milliy, tarixiy va madaniy qadriyatlariga, shuningdek, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, atrof-muhitga ehti-yotkorona munosabatda bo'lish hamda oilada bolaning har tomonlama shakllanishi, ta'lim va tarbiya olishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash majburiy vazifa etib belgilangan ^[1]. Bu, o'z navbatida, maktabgacha yoshdagi bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirishda tarbiyachi va ota-ona hamkorligini yo'lga qo'yish, metodik imkoniyatlarni aniqlashtirish hamda o'quv-uslubiy ta'minotni zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirishni taqozo etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasbiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirishning innovatsion yo'nalishlari M. Mirsoliyeva ^[4], ona tilini o'qitish metodikasi va didaktikasi masalalari E. Azimov ^[2], O. Roziqov va boshqalar ^[5] tomonidan tadqiq etilgan.

Psixologlarning ta'kidlashicha, maktabgacha yosh intensiv aqliy rivojlanish bosqichi hisoblanadi. Ushbu davrning o'ziga xosligi shundaki, psixofiziologik funksiyalarni takomillashtirishdan tortib, shaxsning murakkab neoplazmalarining shakllanishigacha bo'lgan barcha o'zgarishlar aynan shu davrda sodir bo'ladi. Bolalarning tafakkur tendensiyasi nafaqat sodir bo'layotgan hodisalarni tushuntirishga intilish, balki barcha narsaning sabablarini izlash bilan ham tavsiflanadi. Bu jarayonda tushuntirish va kiritish funksiyalari yuzaga keladi.

Tushuntirish funksiyasining yo'nalishi markazdan qochma bo'lib, fikr moddiy natijadan ajralib, faoliyat yoki hodisadan kelib chiqadi. Kiritish funksiyasining yo'nalishi esa markazga yo'naltirilgan bo'lib, fikr niyatdan uni boshqaruvchi motiv va g'oyaga tomon harakat qiladi. Tushuntirish funksiyasi predmetlarga, kiritish funksiyasi esa g'oyalar va fikrlarga intiladi. Dastlab bolaning fikri g'oyalar va predmetlardan birdek kelib chiqib, oraliq pozitsiyani egallaydi.

Ma'lumki, dars o'qitishning asosiy shakli hisoblanadi va u metodlar orqali amalga oshiriladi. Metod deganda ko'zlangan maqsadga erishish uchun qo'llaniladigan yo'l tushuniladi; metod muayyan muammoni hal etish yoki mavzuni o'rgatishga xizmat qiluvchi ongli ravishda tanlangan yo'ldir; metod o'qituvchi tomonidan talabalarda zarur bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun qo'llaniladigan faoliyat usuli hisoblanadi.

Ta'lim nazariyasida o'qitish metodlari muhim o'rin egallaydi. Pedagogik ensiklopediyada ta'kidlanishicha, ta'lim metodi talabani ta'lim mazmunini o'zlashtirishga qaratilgan, o'zaro bog'liq va ma'lum ketma-ketlikda amalga oshiriladigan faoliyatlar tizimidir. Demak, ta'lim metodlari o'qitish jarayonida qo'yilgan maqsadlarga erishish usullarini, o'quv materialini nazariy va amaliy jihatdan o'zlashtirish yo'llarini, shuningdek, ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini belgilab beradi. Shu bois, metod o'qituvchi va talabalar hamkorligida tashkil etiladigan ta'lim jarayonida belgilangan maqsadga erishish vositalari majmui sifatida talqin etiladi ^[3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Pedagogika fanida ta'lim metodlarini tasnif etish masalalari ham alohida muammo sifatida o'rganilgan. Turli yillarda faoliyat ko'rsatgan tadqiqotchilar tomonidan ta'lim metodlari turlicha tasnif etilgan. Ya'ni pedagogikada o'qitish metodlarini tasnif etishga oid turli-tuman qarashlar mavjud bo'lib, ayrim olimlar bu jarayonda bilim manbalarini hisobga olgan bo'lsalar, boshqalari o'qituvchi faoliyatini, uchinchi guruh olimlar esa talabalar faoliyatini e'tiborga olganlar. O'qitish metodlariga bunday qarashlarning ko'p va rang-barang bo'lishi tabiiydir, chunki o'qitish metodlari mazmunan boy hodisa bo'lib, ular ma'lumot mazmuni bilan ham, talaba faoliyati bilan ham, bilim va malakalar bilan ham, shuningdek ijodiy qobiliyatlarni hamda munosabatlarni rivojlantirish ishlari bilan bog'liq tushunchadir. Shu sababli ta'lim metodlarini tasniflash bo'yicha yagona yondashuv mavjud emas.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilariga ona tilini o'qitish metodlarini takomillashtirishda quyidagilarga amal qilish lozim. Tanlanayotgan metod o'rganiladigan til materiali mazmuniga muvofiq kelishi, mavzuning murakkablik darajasi, o'rganilayotgan o'quv materiali yuzasidan talabalarda ayrim tushunchalarning mavjudligi hamda o'quv materialining hajmi ta'lim metodini tanlashga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mavzu talabalarining o'quv imkoniyatlariga mos kelib, ular o'rganilayotgan til hodisasi yuzasidan muayyan tushunchalarga ega bo'lsalar, qayta xotiralanishga asoslangan metodlar bilan bir qatorda muammoli o'qitish metodidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mavzu hajm jihatidan katta va murakkab bo'lsa, tushuntirish-namoyish etish metodini muammoli ta'lim metodi bilan uyg'un holda olib borish tavsiya etiladi.

Tanlanayotgan metod ona tili ta'limining asosiy maqsadi hamda o'rganilishi ko'zda tutilgan mavzuning xususiy maqsadiga mos kelishi shart. Agar ona tili darsida yangi mavzu o'rganiladigan bo'lsa, o'tilganlarni xotirada tiklash orqali talabalardan ijodiy yondashuvni talab qiladigan topshiriqlarga ko'proq e'tibor qaratiladi. Shuningdek, tanlanayotgan metod talabalarining o'zlashtirish darajasi, mustaqil ishlash ko'nikmalari, yosh va



shaxsiy xususiyatlarini ham hisobga olishi lozim. Talabalarning real o'quv imkoniyatlaridan kelib chiqib, bir vaqtning o'zida bir nechta metoddan foydalanish mumkin. Masalan, bilimlarni mustaqil egallash jarayonida o'zlashtirish darajasi past bo'lgan talabalar uchun qayta xotiralash va qisman izlanuvchanlik metodlaridan foydalanilsa, o'zlashtirish darajasi yuqori bo'lgan talabalar uchun asosan izlanuvchanlik metodlarini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Ona tili darsida qo'llaniladigan metod mavzulararo, bo'limlararo va fanlararo bog'lanishlarni ham hisobga olishi kerak. Talabalarning orfografik, orfoepik va punktuatsion malakalari ustida ishlash ma'lum bir bo'lim doirasida cheklanmaydi, balki deyarli har bir ona tili mashg'ulotida muntazam ravishda takomillashtiriladi. Qo'llaniladigan metod ona tili darslari zimmasiga yuklatilgan ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat qilishi zarur. Ta'lim metodi ona tilidan beriladigan bilimlarning manbaiga ham bog'liqdir. Agar talaba bilimlarni o'qituvchining jonli nutqi orqali oladigan bo'lsa, tushuntirish-namoyish etish metodi talabalarning mustaqil izlanishi bilan uyg'unlashtiriladi. Agar bilim topshiriqlarni bajarish asosida o'zlashtirilsa, asosan talaba faoliyati bilan bog'liq metodlarga murojaat qilinadi. O'quv materiali induktiv usulda berilgan hollarda talabalarning faollik darajasi yuqori bo'ladi. Tanlanayotgan metod o'quv materialini o'rganish uchun ajratilgan vaqt hamda o'qituvchining imkoniyatlariga ham mos kelishi lozim. Agar mavzuni o'rganishga ajratilgan vaqt cheklangan bo'lsa, talabalarning izlanishiga asoslangan metodlarni qo'llash imkoniyatlari kamayadi. Bunday vaziyatlarda o'qituvchining bayoni evristik suhbat bilan uyg'un holda olib boriladi.

Til muhim tarbiya vositasidir. Badiiy adabiyotlar, gazeta va jurnallarni mutolaa qilgan bola o'zida ijobiy fazilatlarni shakllantiradi, muomala madaniyatini egallaydi. Shu bois bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilariga ona tilini o'qitish metodlarini takomillashtirish orqali har bir talabada ona tiliga nisbatan qiziqish va muhabbatni izchil ravishda tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida mashg'ulotlar turi va mazmuniga ko'ra farqlanadi. Bu jarayonda o'yin yetakchi faoliyat hisoblanadi. Maxsus tashkil etilgan o'yin vaziyatlari bolalarni ona tilida erkin gapirishga undovchi tabiiy motivatsiya manbai sifatida qaralishi lozim. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalarga ona tilini o'rgatadigan o'qituvchi bolalarning aqliy rivojlanishining yoshga xos xususiyatlarini chuqur bilishi zarur. Bolalarga ona tilini o'rgatishga yo'naltirilgan bevosita ta'lim faoliyati muayyan tuzilishga ega bo'lib, unda tashkiliy qism, mavzu bo'yicha lug'at ishi, tovushlar va tovush birikmalarining to'g'ri talaffuzini mustahkamlashga qaratilgan fonetik mashqlar, dialogik va izchil nutqni rivojlantirish, grammatik jihatdan to'g'ri nutqni shakllantirishga oid mashqlar hamda mavzuni mustahkamlashga xizmat qiluvchi o'yinlar, nutqiy vaziyatlar va hikoyalar bilan ishlash bosqichlari o'zaro uyg'un holda amalga oshiriladi.

Har bir ta'lim faoliyati lug'atni boyitish, to'g'ri talaffuz va fonologik ko'nikmalarni rivojlantirish, grammatik jihatdan to'g'ri, dialogik va izchil nutqni shakllantirish jarayonlarini birlashtiradi. Ta'lim faoliyatida yangi so'zni kiritish, ya'ni uning semantizatsiyasi, muayyan ketma-ketlik asosida amalga oshiriladi. Dastlab so'z bilan ifodlangan buyum, o'yinchoq, harakat yoki sifat ko'rsatiladi, so'ng ushbu obyektning tasvirllovchi rasm namoyish etiladi. Keyinchalik so'z alohida va jamoa bilan birgalikda ona tilida takrorlanadi, gap tarkibida qo'llanadi hamda o'yin faoliyati orqali mustahkamlanadi.

Mazkur o'yinlar jarayonida bolalar nafaqat so'z boyligini faollashtiradilar, balki so'zlarni real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lashni o'rganadilar, so'zlarning ma'nosi va shakllari haqidagi bilimlarini chuqurlashtiradilar hamda ularni o'z faoliyatlarida qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Mashg'ulotga tayyorgarlik jarayonida bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari ilgari o'rganilgan qaysi so'zlarni takrorlash va mustahkamlash zarurligini, qaysi yangi so'zlarni qanday tushuntirish lozimligini, shuningdek ona tili ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan talaffuz xatolarini oldindan aniq tasavvur qilishi kerak. Tilning grammatik tuzilishini o'zlashtirishga doir ishlarning ko'lamini va mazmunini aniqlash ayniqsa muhimdir. Bolalar uchun yangi bo'lgan barcha til birliklari imkon qadar turli mavzular va vaziyatlar doirasida, yangi so'zlar va konstruksiyalar orqali mustahkamlanishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilariga ona tilini o'qitish metodlarini takomillashtirish bugungi ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy rivoji, muloqot madaniyati va tafakkurining shakllanishi bevosita tarbiyachining metodik tayyorgarligi, kasbiy mahorati hamda ona tilini o'qitishda qo'llayotgan pedagogik yondashuvlariga bog'liqdir. Bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida an'anaviy metodlar bilan bir qatorda interfaol, o'yin texnologiyalariga asoslangan, kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuvlarni joriy etish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda nutqni rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarni tashkil etish, ona tili ta'limini boshqa ta'lim yo'nalishlari bilan integratsiyalash hamda amaliy mashg'ulotlar ulushini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.



Shuningdek, tadqiqot davomida bo'lajak tarbiyachilarda metodik kompetensiyani shakllantirish uchun oliy ta'lim muassasalarida nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish hamda mustaqil ijodiy faoliyatni rag'batlantirish zarurligi asoslab berildi. Ushbu jarayon tarbiyachilarning kasbiy tafakkurini rivojlantirish, reflektiv yondashuvni kuchaytirish va pedagogik faoliyatga ongli munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilariga ona tilini o'qitish metodlarini takomillashtirish bolalarning nutqiy rivoji va ma'naviy kamolotini ta'minlash bilan birga, maktabgacha ta'lim sifatini oshirishga, raqobatbardosh va zamonaviy pedagog kadrlarni tayyorlashga zamin yaratadi. Mazkur yo'nalishda olib boriladigan ilmiy izlanishlar va amaliy tadqiqotlar ta'lim tizimini yanada takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida." 2019-12-16. O'RQ-595-son. <https://lex.uz/docs/-4646908>
2. Azimov E. Ona tilidan muammoli dars. "Til va adabiyot ta'limi", 1993, 34-qo'shma son, 27–30-b.
3. Klimov Ye.A. Psixologiya professionala. Moskva: Pedagogika, 1996. 400 b.
4. Mirsolieva M.T. Oliy ta'lim tizimi pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar // O'rta maxsus va oliy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish. Buxoro, 2015.
5. Roziqov O., Mahmudov M., Adizov B., Hamroev A. Ona tili didaktikasi. Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2005. 202–209-b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.